

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

MARKAZIY HARBIY OKRUG HUZURIDAGI  
“ILMIY TADQIQOT” ILMIY-AMALIY  
VA USLUBIY MARKAZI



“Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga  
tayyorlashda psixologiyaning o‘rni”  
mavzusidagi

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiyaning  
ilmiy maqolalar to‘plami*



Samarqand – 2021

**“Ҳарбий хизматчиларни хизмат фаолиятига тайёрлашда психологиянинг ўрни”.** Республика илмий-амалий конференция илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: ЎР МВ МХО, 2021. – 391 бет.

Конференция илмий мақолаларидан иборат мазкур тўпламдан ҳарбий таълим муассасаларида Психология фанининг замонавий усуслари, уни такомиллаштириш бўйича таклифлар ҳамда бу соҳада ҳал қилиниши лозим бўлган долзарб масалалар, фан докторлари, профессор-ўқитувчилар ҳамда илмий изланишларни эндигина бошлаган тадқиқотчилар, магистрантлар, иктидорли талабаларнинг изланиш натижалари ўрин олган.

Тўпламдаги илмий мақолалар Ҳарбий хизмат фаолиятида Психологияни ривожлантириш ҳамда соҳага оид илмий-тадқиқот фаоллигини ошириш масалалари билан илмий изланувчилар эътиборига моликдир.

**Таҳрир ҳайъати:** Джаббаров А.А., полковник;  
Бекназаров А.А., психол.ф.н., профессор;  
Равшанов Л.У., психол.ф.ф.д.(PhD), доцент, подполковник;  
Рахимова И.И., психол.ф.ф.д.(PhD), доцент;  
Бутаева У.А., психол.ф.ф.д.(PhD), доцент;  
Мираширова Н.А., доцент;  
Султонов У.Б., подполковник;  
Уразолиев А.Б., подполковник;  
Джуманиязова М.Х., катта ўқитувчи;  
Юсупжонова И.А., ўқитувчи;  
Улуғов Ж.Н., ўқитувчи;  
Акобиров М.Х., ўқитувчи.

Тўпламдан ўрин олган мақолаларнинг савияси, сифати ва илмий далилларнинг ҳаққонийлиги ҳамда мазмуни учун муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдирлар.

Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги Марказий ҳарбий округи хузуридаги “Илмий тадқиқот” илмий-амалий ва услбуий маркази томонидан нашрга тавсия этилган.

*Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги Марказий ҳарбий округи хузуридаги “Илмий тадқиқот” илмий-амалий ва услбуий маркази, 2021 йил*

qo‘riqchi xizmatini olib borish, kuchli harbiy intizom, jamoa hayotida faol ishtirok etish, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, iroda harbiy xizmatchilar faoliyatida katta ahamiyatga ega. Mustahkam iroda mehnat va jangovar faoliyatda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham harbiy-kasbiy faoliyat jarayonida komandirlar harbiy xizmatchilarda irodani tarbiyalashga katta e’tibor berishlari lozim.

Irodani toblastash va hissiy-irodaviy barqarorlikni tarbiyalash, harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlashning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir shaxsda irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko‘p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Iroda va irodaviylik sifatlarini muvaffaqiyatli tarbiyalashning ajralmas sharti harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘zidan rivojlantirish istagini rivojlantirishdan iborat bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ушинский К.Д. Собр. сочинен.в 10 т. М.-Л., 1952, с.182.
2. Ch.R.Nasriddinov “Harbiy psixologiya” Fan nashriyoti, Toshkent: 2004 yil.
3. I.X.Xayriyev.“Iroda psixologiyasi ” Fan nashriyoti, Toshkent: 2010 yil
4. Q.A.SH.Satibaldiyev “Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari” TDPU nashriyoti, Toshkent: 2007 yil.
5. Internet ma'lumotlari: mudofaa.uz

## **OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI**

*Davurova G.A. – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti pedagogika ta’limi nazariyasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o‘ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo‘lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotinga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha tamoyilga ega bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topadi.

**Kalit so‘zlar:** Oila, jamiyat, effekt, adaptatsiya, psixologik munosabatlar, xulq, individual psixologik xususiyatlar, begonalik effekti, yosh oila.

Maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiyl mexanizmlarga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o‘tilgan.Umuman yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan nikoh oldi omillarining xarakteriga, shu oilalarning yuzaga kelish shart-sharoitlari bilan uzviy

bog‘liqdir. Bular haqida oldingi mavzuda qisman to‘xtalib o‘tdik. Albatta, yosh oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilik, sovchilik, hisob tufaylimi yoki stereotip bo‘yichami, qanday bo‘lishidan qat’i nazar nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarida, er-xotin o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko‘tarinkilik, hissiy rang-baranglik darajasi yuqori bo‘ladi. Bir-birlarini ma’lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday emotsional ko‘tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo‘ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan, visol damlariga nihoyat yetishgan bo‘ladilar. Bunday juftlar nikohi boshida er-xotin o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarda ko‘tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo‘ladi. Nafaqat sevishib oila qurbanlar, balki deyarli barcha motivlarga ko‘ra oila qurban yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o‘zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo‘ladi. Ularning bir-birlariga, o‘z nikohlariga, o‘zlarining bo‘lajak oilaviy hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari ezgu, ijobjiy bo‘ladi. Chunki hech kim va hech qachon ertaga bo‘lajak turmush o‘rtog‘im, yangi oilamning yangi a’zolari bilan nizo janjalga boraman, ular bilan urishaman va oxir-oqibatda oilam buzilib, ajrashib ketaman, deb oila qurmaydi (Ayrim hollarda majburan oila qurbanlar bundan mustasno). Inson oila qurar ekan ahil-inoq yashab, murod-maqsadga yetishishni orzu qiladi, nikoh arafasida va nikoh kechasi ham barcha yaqin birodarlar, qarindosh-urug‘lar, to‘yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Shuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o‘rtog‘i timsolida, o‘zining shu orzu-istiklariga, murod-maqsadlariga yetishishda yordam beruvchi, uni qo‘llab-quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o‘z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga imkon qadar shunday ijobjiy, iliq munosabatda bo‘lishga harakat qiladi.

Biroq hayotda, ayniqsa, oilaviy hayotda hamma narsa ham odam kutganidayin bo‘lavermaydi. Oilaviy hayotning o‘ziga yarasha notejisliklari, past-balanchiliklari, murakkabliklari, muammolari bo‘ladi. Shunday murakkabliklardan biri yosh er-xotinning yangi ijtimoiy statusga, mavqega: er, kuyov, uylangan, oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o‘zlar uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayoni bilan bog‘liq. Xo‘sish bu yangi sharoitlarga moslashish jarayoni kimda qanday kechadi? Albatta, bu jarayon erkaklarda ayollarga nisbatan yengilroq kechadi. Chunki ular, o‘zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aksariyat hollarda erving uyida, uning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan yashaydi. Ya’ni yigit uylanganidan keyin ham o‘z oilasida, o‘z yaqinlari va o‘zi uchun oldindan odat bo‘lib qolgan oilaviy, shaxslararo munosabatlar tizimida qoladi. Ayol kishining esa nikohdan keyingi holati, oldingisidan keskin farq qiladi. Birinchidan, u o‘zi uchun deyarli yangi bo‘lgan, oldingisidan tubdan farq qiladigan muhitga tushadi. U o‘ziga xos shaxslararo munosabatlar tizimi, rollar taqsimoti, o‘ziga xos «xulqqa» ega bo‘lgan o‘zining qizlik oilasidan, boshqa bir oilaga, boshqacha bir shaxslararo munosabatlar tizimiga ega bo‘lgan yangi oilaviy muhitga tushadi. Undagi mavjud turmush tarzi oldingisiga mos tushmaydi, bundagi oilaviy rollar taqsimoti ham oldingisiga

o‘xshamaydi,u yerdagi ma’lum bir ishni bajarish tartibi, u yoki bu ishga qo‘yiladigan talablar ham oldingisiga o‘xshamaydi. Buning ustiga yosh oilada yosh kelin zimmasiga yuklatiladigan vazifalar. ham uni qizlik vaqtida bajaradigan ishlaridan ham miqdor,ham mazmun jihatdan tubdan farq qiladi. Yangi ijtimoiy sharoitga moslashish jarayonining o‘zbek oilalarida ayol kishi uchun qiyin kechishining asosiy sabablaridan yana biri unda yosh kelin yuqorida aytib o‘tilgan vaziyatlarga tushishi bilan birga ularda bu yangi oilada kelin o‘zini «begona» deb his etishidir, ya’ni undagi «begonalik effekti»ning mavjudligidir.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan ko‘rinib turibdiki, yosh oila yuzaga kelganidan so‘ng unda er-xotin munosabatlarining «kutilganidek» rivojlanishiga xalaqit qiladigan ko‘plab ijtimoiy, psixologik, etnik, hududiy, jinsiy omillar borki, yoshlarimiz bularning barchasi haqida oldindan xabardor bo‘lishligi va ularning salbiy ta’sirlarini yumshatib, ijobiy jihatlarini rivojlantirishga tayyor bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta`kidlash mumkinki; eng ezgu niyatlar bilan oila qurgan yoshlarda er-xotinning shaxsiy munosabatlari baxtga qarshi yaxshidan yomonga qarab rivojiana boshlaydi. Chunki nikohning boshida. kuzatiladigan er-xotin o‘rtasidagi ko‘tarinki emotsional yaqinlik asta-sekinlik bilan pasayib, ular hissiyotlarining o‘tmaslashuvi ro‘y beradi. Bu holatlar albatta har qanday oilada shaxslararo munosabatlar rivojlanishining o‘ziga xos dinamikasini tashkil qiladi. Bu holatdan voqif bo‘lish va uning o‘zgarishlariga tayyor turish yosh oilalarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ayrim ko‘ngilsizliklarning oldini olishga asos bo‘ladi. Shunday ekan biz yoshlar ota-onamiz, bobo-buvilarimiz, kattalar gapiga qulqutishimiz kerak, ularni duolarini olishak oila ham, jamiyat ham tinch va farovon bo`ladi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. Akramova F.A. Oilada muomilani tashkil etish psixologiyasi.T.: SHAMS ASA, 2006.
2. Avloniy A. Guliston yoxud axloq.Islom odobidan mumtoz namunalar. T.,1993.
3. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi.
4. Oila axloqi va odobi: Majmua.\_Toshkent, 1995

### **ZAMONAVIY IJTIMOIY PSIXOLOGIK XIZMAT – PSIXOLOGIK TADQIQOT MUAMMOSI SIFATIDA**

*Djumaniyozova M.X. – UrDU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

O‘zbekistonda demokratik islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda ijtimoiy muammolarga alohida e’tibor qar atilmoqda. O‘zbekistonning o‘z tiklanish va taraqqiy etish yo’liga asoslangan tamoyillardan biri ham bu kuchli ijtimoiy siyosatdir. Kuchli ijtimoiy siyosat deganda “O‘zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va e’tiqodidan qat’iy nazar shaxs sifatida shakllanishi, o‘z qobiliyatini namoyon etishi, hayotini yanada farovon, munosib, ma ’naviy boyroq

23. Абдуганиев Ш., Бекназаров А. Стресс ва кризислар профилактикаси.....	96
24. Қўлдошев Р. Бўлажак ҳарбий учувчилар касбий тайёргарлигининг психологик хусусиятлари.....	104
25. Абдуллаев Б., Алиева Г. Бошқарув илмининг назарий-тарихий асослари.....	111
26. Abduqodirova N. Maktabgacha ta'lim muassasasida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.....	114
27. Абдурахманова Р. Место психологии и квалификация военных психологов в подготовке военнослужащих в нашей стране.....	116
28. Абиджанова М. Ҳарбий хизматчилар профессионал тайёргарлигини оширишда дўстлик ва жанговар ўртоқлик анъаналарининг психологик жиҳатлари.....	120
29. Алибоев Б. Ҳарбий хизматчиларни хизмат фаолиятига тайёрлашда психологиянинг ўрни.....	122
30. Амиррова З. Курсантларнинг ҳарбий-техник тафаккурини ривожлантириш усуллари тизими таҳлили.....	124
31. Артиков Ж. Ҳарбий хизматчиларда ўзига бўлган ишончни шакллантиришнинг ўзига хос психологик жиҳатлари.....	128
32. Алиев Ш. Психологияда имиж муаммосига оид илмий ёндошувлар .....	133
33. Аълоханов А. Темперамент ва асаб тизими хусусиятларини тадқиқ этишнинг ўзига хосликлари.....	138
34. Баҳриддинов Н. Шарқ мутафаккирлари таълимотида касб эгаллаш фаолияти шахснинг характер ва иродавий хислатларига таъсири .....	140
35. Bekchanov X., Sobirov K. Inson shaxsi kamolotida aqliy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari.....	142
36. Berdimurodova X. Ustozlar – inson qalbining muhandislari.....	144
37. Bo‘riyev H., Normurodova M. Harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatiga tayyorlashda yosh davr psixologiyasining o‘rni.....	147
38. Чориев Ф. Креатив тафаккурнинг таълим жараёнинидаги ўрни ва роли.....	149
39. Boymirzayeva R. Huquqiy kasblar tizimida psixologik qarashlar.....	152
40. Джуманиязова М. Талаба ёшлар диний дунёкараши хусусиятларини детерминацияловчи объектив ва субъектив омиллар таҳлили.....	154
41. Davronov F. Harbiy xizmatchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning psixologik usullari.....	157
42. Davurova G. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.....	161
43. Djumaniyozova M. Zamonaviy ijtimoiy psixologik xizmat – psixologik tadqiqot muammosi sifatida.....	163
44. Дусанов Н. Жамовий онгга боғлиқ муаммолар ва уларнинг ечими.....	168
45. Зарифова М. Амалиётчи психологнинг маслаҳат ишларини ташкил килишнинг ўзига хос жиҳатлари.....	174
46. Isroilov F. Psixologiyada vatanparvarlik fenomen muammo sifatida.....	178
47. Ибрагимов М. Социал иқтидор структуравий хусусиятларининг психологияда ўрганилиш эволюцияси.....	181
48. Kobulova S. O‘quv motivatsiyasini psixolog olimlar tomonidan o‘rganilishi.....	185
49. Қиличева К. Профилактика инспекторининг ҳозирги кундаги асосий вазифасилари.....	188
50. G'afforov A. Shaxsga nisbatan indvid atamasini qo'llashning ilmiy asosi.....	191
51. Haqberdiyeva D. Harbiy hizmatchilar faoliyatida stressing o‘rni va ahamiyati....	196
52. Мажидов Н., Сайдов М. Касб танлаш ижтимоий воқелик сифатида.....	198

# **ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИ ХИЗМАТ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ**

*Республика илмий-амалий конференциясининг  
илмий мақолалар тўплами*



**Масъул мухаррир:**

подполковник

Уразолиев А.Б.

**Нашр учун масъуллар:**

майор

Набиев С.А.

ҚҚ хизматчиси

Улуғов Ж.Н.

**Компьютерда териш:**

ҚҚ хизматчиси

Акобиров М.Х.

**Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги Марказий ҳарбий округ  
хузуридаги “Илмий тадқиқот” илмий-амалий ва услубий маркази,  
Самарқанд шахри, Спитаменшоҳ қўчаси, 56-уй.**

Босишига рухсат этилди 25.10. 2021 йил. Бичими 60x84<sup>1/16</sup>.

Times гарнитураси.

Офсет босма усулида чоп этилди.

Адади: 30 нусха.